

TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINI TABIAT QO'YNIDA TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI

Samarqand viloyati Paxtachi tumani 45-maktabning tasviriy san'at o'qituvchi

Soxibov Sherali Baratovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada tasviriy san'at mashg'ulotlarini tabiat qo'ynida tashkil etishning afzalliklari jihatdan puxta bilim olishiga erishish va o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish omillariga e'tibor qaratish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, amaliy bezak san'ati, badiiy hunarmandchilik, me'morchilik va dizayn san'ati, Borliqni idrok etish", "San'atni idrok etish", "Naturaga qarab tasvirlash" va "Kompozitsion faoliyat"

Tasviriy san'atdagi ta'limiy va tarbiyaviy jarayon o'quvchilarda rasm chizish, me'morchilik ko'nikmalarini shakllantirish bilan birgalikda atrof-muhitdagi go'zalliklarni estetik idrok etish, uni tasviriy vositalar asosida aks ettirish bo'yicha ham nazariy bilim va malakalarni rivojlantiradi. Shuni aytib o'tish lozimki, bu maqsadlarga to'laqonli erishishda o'qituvchining darsga yondashuvi va mahorati muhim o'rin egallaydi. Chunki tasviriy faoliyat jarayonida shakllanadigan bilim, malaka va ko'nikmalar asosan dars davomida amalga oshiriladi.



“Borliqni idrok etish”, “San’atni idrok etish”, “Naturaga qarab tasvirlash” va “Kompozitsion faoliyat” yo‘nalishlari bo‘yicha mavzu mazmunini yoritib berish maqsadida o‘qituvchilar tasviriy san’at darslarini ko‘proq amaliy jihatdan tabiat qo‘ynida o‘tkazishlari, muzeylarga sayohat uyushtirishlari tavsiya etiladi. Bunda o‘quvchilarning ona tabiatga, jonajon o‘lkaga mehr-muhabbati oshadi, milliy qadriyatlarimizni, me‘moriy yodgorlik va san’at durdonalarimizni asrab-avaylash hamda qadrlashni o‘rganadilar.

Dars jarayonida qo‘llaniladigan interfaol metod va texnologiyalarni tanlashda fanning xususiyatini hisobga olish maqsadga muvofiq. O‘qitish jarayonining samarali va natijali bo‘lishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan interfaol uslublar va o‘qitish texnologiyalari hozirgi kunda respublikamizning barcha umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida keng miqyosda qo‘llanilib, ijobiy natijalar olinmoqda. Xususan, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash qismida “Zinama-zina”, “FSMU”, “Tushunchalar tahlili”; yangi mavzuni tushuntirishda “Charxpalak”, “Tarmoqlash”, “SAN” texnologiyasi; yangi mavzuni mustahkamlash va unga oid mustaqil ish berilganda “Rezyume”, “Tashviqot guruhi”, “SAN” texnologiyasi; darsni yakunlash bosqichida “Yelpig‘ich” texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Tasviriy san’at darslarini qiziqarli, mazmunli olib borish uchun o‘qituvchi o‘z ishiga ijodiy yondashish, har bir darsda texnika vositalari, multimedia vositalari, slaydlar va ko‘rgazmali qurollardan o‘z o‘rnida foydalanishi kerak. Dars jarayonida faqatgina qo‘llanmada ko‘rsatilgan materiallar bilan cheklanib

qolmasdan, qo‘shimcha adabiyotlar, internetdan olingan ma’lumotlar va fan yangiliklari, ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Jumladan, “Rangtasvir va grafikada manzara ishlash” mavzusini tushuntirishda o‘qituvchi o‘zbek va chet ellik rassomlarning manzara janrida ishlagan asarlarini namuna sifatida kodoskop orqali ekranda ko‘rsatishi, shu mavzu asosida amaliy ishni boshlashdan oldin esa kompyuterda disk yoki fleshka orqali tabiat manzaralarini bosqichma-bosqich ishlanishi tasvirlangan yozuvni namoyish qilishi mumkin. “Sharq miniatura san’ati tarixi haqida suhbat hamda reproduksiyalarni tahlil etish” mavzusini tushuntirishda kompyuter orqali sharq miniatura maktablari va ularning ishlaridan namunalar, Kamoliddin Behzod haqida ma’lumotlarni taqdim etishda, mahoratli ajdodimiz tomonidan ishlangan asarlardan namunalar ko‘rsatish lozim. Tasviriy san’at fanini o‘qitishda madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizdan unumli foydalanish va xalq amaliy san’ati durdonalarini targ‘ib qilish orqali o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish lozim. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san’at darslari, sinfdan hamda maktabdan tashqari ishlarning uyg‘unligini ta’minlanadi. O‘qituvchi tasviriy san’at darslarining tashkilotchisi, rahbari va ilhomchisi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga dastur asosida o‘qitiladigan tasviriy san’at mashg‘ulotlari narsaning asliga qarab tasvir chizish; xotira va mavzu asosida tasvir chizish; dekorativ amaliy san’at va haykaltaroshlik; san’atni idrok qilish kabi turiarda olib boriladi. O‘qituvchi tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni dars mavzusiga aktivlashtirish uchun dars mavzusining mazmuni, hayotdagi ahamiyati va uni chizish qoidalarini tushuntirishi zarur. Ba’zida o‘qituvchilar tasviriy san’at darslarini tashkil etish uchun o‘quvchilarga dars mavzusi yuzasidan savollar berib, unga berilgan javoblarni to‘ldirish kabi vositalardan foydalaniladi. O‘quvchilar dars va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda bajarayotgan ishlari vositasi bilimga, malakaga, ijodiy ko‘nikmaga ega bo‘ldilar, o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarning mustaqil ishlariga yordam berishi, rag‘batlantirish metodi asosida ilhomlantirish, yutuq va kamchiliklarini o‘z vaqtida ko‘rsatish, ularni o‘z kuchiga ishonchini mustahkamlashida rahbarlik qiladi. Shaxsning badiiy madaniyati va ma’naviyatini rivojlanishida tasviriy san’atning o‘rni Insoniyat ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi san’atdir. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot,

xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati kabi boshqa turlarini o'z ichiga oladi. San'atning har bir turi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni aks ettirishda har xil vositalardan foydalanadi, masalan, adabiyot - so'zdan, musiqa - tovushlardan, tasviriy san'at - rang va chiziqlardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir san'at turi o'z ichida yana xillarga va janrlarga bo'linadi. San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs, tortishuvlarga sabab bo'lib kelgan. San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri - tasviriy san'atdir. Odatda real borliqni badiiy obrazlarda, mavjud predmetlarni tabiiy shaklini o'ziga o'xshatib umumlashtirib ifodalaydi hamda predmetlarning hajmi, o'zaro fazoviy joylashuvini va hokazolarda aks ettiradi. San'atkor o'z asarida voqea, hodisa, holatning ma'lum bir zumdagi ko'rinishini ifodalab, u tasvir orqali rivojini, mohiyatini ochib berishga intiladi, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik holati va boshqa fikrlarni ilgari suradi va tasavur qiladi. Rassom biror shaxsni rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatishga ishtilish bilan chegaralanmaydi. Rassom shu ishlayotgan tasvir orqali avvalo o'zining fikr va tuyg'ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Ishlamochi bo'lgan tasvirida avvalombor g'oyasiga mos mavzu, syujet tanlaydi, voqea kompozitsiyasini quradi, shu yo'lda izlanadi, dastlab hayotni o'rganib, naturani kuzatib, eskizlar chizadi, etyudlar yaratadi. Rassomlik san'atida predmetlarning shakli, hajmi, rangi, ularning o'zaro muvozanatini to'g'ri ko'rsatishda rasmni aniq va to'g'ri ishlashning juda muhim ahamiyati bor. San'atkor o'z asarida real borliqda uchraydigan, balki inson fantaziyasi mahsuloti bo'lgan voqea va predmetlar ham aks ettirilishi, hayotda mavjud bo'lgan hodisalarning ayrim jihatlari o'zgartilib bo'rttirib ko'rsatishi ham mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, tasviriy san'at asarlari - insondagi ajoyib fazilat - borliqni bilish, uni o'rganish va sirlarini ochishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga ta'sir ko'rsatadi. Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turiaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kamolatiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.- Toshkent: SHarq, 1999. 4. Azimova B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi.— Toshkent: O'qituvchi, 1984.
2. Bakushinskiy A.V. Xudojestvennoe tvorchestvo i vospitanie. Issledovanie i statyi.—Moskva: Sov. xudojnik, 1981.
3. Boymetov B. , Tolipov N. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. Toshkent, 1995.
4. Bulatov S. Amaliy san'at qisqacha lug'ati.-Toshkent: HBM, 1992.
5. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati.—Toshkent: Mehnat, 1994.
6. Nabiev M. Rangshunoslik.—Toshkent; O'qituvchi, 1995. 10. Nikonorova N.M. Naglyadnye posobiya i oborudovaniya dlya zanyatiy izobrazitel'no'm isskustvom.— Moskva: Prosveqenie, 1975.